



«Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat banki
Joint-stock commercial bank «Microcreditbank»
Акционерно-коммерческий банк «Микрокредитбанк»

100096, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Lutfiy ko'chasi 14
Tel.: +998 71 207 46 51 (1104), Aloqa markazi: 1285
E-xat: mikrokreditbank@exat.uz www.mkbank.uz

XABARNOMA

«07» iyul 2023 y.

№ 88

EMITENTNING NOMI							
1.	To'liq:	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki					
	Qisqartirilgan:	"Mikrokreditbank" ATB					
	Birja tikerining nomi:	MCBA					
ALOQA MA'LUMOTLARI							
2.	Joylashgan eri:	100096, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Lutfiy ko'chasi, 14-uy					
	Pochta manzili:	100096, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Lutfiy ko'chasi, 14-uy					
	Elektron pochta manzili:	info@mikrokreditbank.uz					
	Rasmiy veb-sayti:	www.mikrokreditbank.uz					
3.	MUHIM FAKT TO'G'RISIDA AXBOROT						
	Muhim faktning raqami:	06					
	Muhim faktning nomi:	Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar					
	Umumiy yig'ilish turi:	Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi					
	Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi:	27.06.2023 y.					
	Umumiy yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sana:	06.07.2023 y.					
	Umumiy yig'ilish o'tkazilgan joy:	Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Lutfiy ko'chasi, 14-uy.					
	Umumiy yig'ilish kvorumi:	99,37 foiz					
№	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		yoqlash		qarshi		betaraflar	
		%	soni	%	soni	%	soni
1	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash.	100	3 300 452 627	0	0	0	0
2	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining 2022-yil yakunlari bo'yicha Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.	100	3 300 452 627	0	0	0	0
3	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining 2022-yil faoliyati yakunlari bo'yicha Kuzatuv kengashining hisobotini tasdiqlash.	100	3 300 452 627	0	0	0	0
4	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruvining 2022-yil yakunlari bo'yicha va bankni rivojlantirish strategiyasi to'g'risidagi hisobotini hamda bankning 2023-yildagi ustuvor vazifalarini tasdiqlash.	100	3 300 452 627	0	0	0	0
5	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki faoliyatining 2022-yil yakunlari bo'yicha yillik	100	3 300 452 627	0	0	0	0

	hisobotini, jumladan buxgalteriya balansini, foyda va zararlari to'g'risidagi hisobotini hamda auditorlik tashkilotining xulosasini tasdiqlash.						
6	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining 2022-yil faoliyati yakuni bo'yicha sof foydasini taqsimlash.	99,82	3 294 452 627	0,18	6 000 000	0	0
7	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining korporativ boshqaruv tizimini baholash yakunlari bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilot xulosasini tasdiqlash.	100	3 300 452 627	0	0	0	0
8	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki boshqaruvi faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarining (“KPI”ning) 2022-yil natijalarini tasdiqlash.	100	3 300 452 627	0	0	0	0
9	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki ustav kapitalini kamaytirish.	100	3 300 452 627	0	0	0	0
10	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish.	100	3 300 452 627	0	0	0	0
11	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining “Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida”, “Kuzatuv kengashi to'g'risida”, “Boshqaruvi to'g'risida” va “Kuzatuv kengashi a'zolariga haq va kompensatsiyalar to'lash tartibi to'g'risida”gi Nizomlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish.	100	3 300 452 627	0	0	0	0
12	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining avval ro'yxatdan o'tkazilgan Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorlariga o'zgartirishlar kiritish hamda avval ro'yxatdan o'tkazilgan Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar matnini tasdiqlash.	100	3 300 452 627	0	0	0	0
13	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida (joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq) affillangan shaxslar bilan va yirik bitimlarni kelgusida Bank tomonidan mustaqil amalga oshirishi uchun aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan (kutilayotgan) bitimlarni aniqlash va ma'qullash.	100	3 300 452 627	0	0	0	0

Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'liq bayoni:

1.	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining Sanoq komissiyasi quyidagi tarkibda bankning kelgusi navbatdagi yillik umumiy yig'ilishiga qadar bir yil muddatga tasdiqlansin: 1) Turdibekov Zafar Shokul o'g'li; 2) Shirkulov Fazliddin Muradimovich; 3) Niyazova Hilola Akramovna.
2.	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining 2022-yil yakunlari bo'yicha Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi reglamenti tasdiqlansin.
3.	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining 2022-yil faoliyati yakunlari bo'yicha Kuzatuv kengashining hisoboti tasdiqlansin.
4.	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruvining 2022-yil yakunlari bo'yicha va bankni rivojlantirish strategiyasi to'g'risidagi hisoboti hamda mazkur hisobotda taklif etilgan bankning 2023-yildagi ustuvor vazifalari tasdiqlansin.
5.	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki faoliyatining 2022-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti, jumladan buxgalteriya balansi, foyda va zararlari (moliyaviy natijalari) to'g'risidagi hisoboti hamda “Grant Thornton” MChJ auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasi tasdiqlansin.
6.	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining 2022-yil faoliyati yakuni bo'yicha sof foydasi hisobidan oddiy aksiyalari bo'yicha dividendlar to'lanmasin. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining 2022-yil faoliyati yakuni bo'yicha 21 314 665 203,04 so'm sof foydasi quyidagicha taqsimlansin: 1) 1 065 733 260,15 so'm yoki 5,0 foiz miqdorda umumiy zaxira fondiga yo'naltirilsin; 2) 20 248 931 942,89 so'm yoki 95,0 foiz miqdorda taqsimlanmay taqsimlanmagan foyda xisobvarag'ida qoldirilsin.
7.	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining 2022-yildagi korporativ boshqaruv tizimini baholash yakunlari bo'yicha mustaqil baholovchi tashkiloti “AUDIT FAIR SERVICES” MChJ auditorlik tashkilotining xulosasi tasdiqlansin.

8.	<p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki boshqaruvi faoliyati samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlarining (“KPI”ning) 2022-yil natijalari tasdiqlansin.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-168-son “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ko‘chmas mulk ob‘ektlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga davlat ulushini kamaytirish hisobiga o‘tkazilishi sababli, “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining ustav kapitali aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo‘li bilan 1 406 250 552 (bir milliard to‘rt yuz olti million ikki yuz ellik ming besh yuz ellik ikki) so‘mga kamaytirilsin va uning miqdori 3 545 927 089 668 (uch trillion besh yuz qirq besh milliard to‘qqiz yuz yigirma etti million sakson to‘qqiz ming olti yuz oltmish sakkiz) so‘m etib belgilansin.</p> <p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining ustav kapitalini kamaytirish tartibi quyidagicha amalga oshirilsin:</p> <p>Bankning Farg‘ona viloyati mintaqaviy filiali balansidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo‘sh turgan ob‘ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasiga o‘tkazilgan Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani “Qirq ketmon” MFYda joylashgan “Dam olish maskani bino va ishnootlari” ko‘chmas mulk ob‘ektining 1 406 250 000 so‘m balans qiymati miqdorida Bank ustav kapitalidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligiga (avval O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga) tegishli bo‘lgan Davlat ulushini kamaytirish hisobiga kamaytiriladi;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligiga (avval O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga) tegishli nominal qiymati</p> <p>1 068 so‘m bo‘lgan 1 316 714 dona umumiy qiymati 1 406 250 552 so‘m Bankning oddiy aksiyalari 1 068 so‘m narxda keyinchalik bekor qilgan holda Bank oddiy aksiyalarining umumiy soni qisqartiriladi;</p> <p>o‘tkazilgan ko‘chmas mulk ob‘ekti balans qiymati miqdori va bekor qilinadigan oddiy aksiyalar umumiy qiymati miqdori o‘rtasidagi 552 so‘m farq Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligiga to‘lab beriladi yoki keyinchalik uning Bank ustav kapitalidagi ulushi ko‘paytirilayotganda yohud kamaytirilayotganda hisobga olinadi;</p> <p>Bank qonunchilikka muvofiq ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risida o‘z kreditorlarini xabardor qiladi va ularning talablarini bajaradi.</p>
10.	<p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilsin va tasdiqlansin.</p> <p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruvi zimmasiga Bank Ustaviga kiritilayotgan o‘zgartishlar va qo‘shimchalarni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.</p>
11.1.	<p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining “Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi Nizomiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilsin va tasdiqlansin.</p>
11.2.	<p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizomiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilsin va tasdiqlansin.</p>
11.3.	<p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining “Boshqaruvi to‘g‘risida”gi Nizomiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilsin va tasdiqlansin.</p>
11.4.	<p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining “Kuzatuv kengashi a‘zolariga haq va kompensatsiyalar to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilsin va tasdiqlansin.</p>
12.	<p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining ustav kapitalini kamaytirilishi bilan bog‘liq avval O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2021-yil 17-iyunda P0005-27-son, 2021-yil 9-avgustda P0005-28-son va 2022-yil 15-fevralda P0005-29-son bilan ro‘yxatga olingan Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorlariga o‘zgartirishlar kiritilsin.</p> <p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining avval O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2021-yil 17-iyunda P0005-27-son, 2021-yil 9-avgustda P0005-28-son va 2022-yil 15-fevralda P0005-29-son bilan ro‘yxatga olingan Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar matnlari tasdiqlansin hamda ularni tasdiqlanganligi bo‘yicha imzolash huquqi yig‘ilish raisiga berilsin.</p> <p>Aksiyalar chiqarilishini qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Bank Boshqaruvi zimmasiga yuklatilsin.</p>
13.	<p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining kundalik xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida (joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq) affillangan shaxslar bilan va yirik bitimlarni kelgusida Bank (Bank Boshqaruvi) tomonidan mustaqil amalga oshirishi uchun aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan (kutilayotgan) bitimlar ma‘qullansin.</p>
Ustavga kiritilayotgan o‘zgartish va (yoki) qo‘shimchalarning matni ilova qilinadi.	

Boshqaruv raisi o‘rinbosari



I.Djumaniyazov

Kelishuvchilar: Z.Turdibekov, X.Usmanov, M.Yoqubov

<https://collective.mkb.uz/hujjat/doc.jsp?id=dc381b01-1b67-477e-8461-15a84ba9e46f&pin=uwCg4pBm>